



TALABALARGA RANGTASVIR ORQALI BADIY TA`LIM BERISHNING KREATIV TEKNOLOGIYALARI

Nozim Talipov

Nizomiy Nomidagi TDPU, Tasviriy san`at kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Dilaro Po`latova

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta`lim yo`nalishi

TS/101-guruh talabasi

Abstract

In the article, main practical recommends on drawing etudes are given. The peculiarities of individual methods using in this direction are explained.

Key concepts. Etude, arrangement, specify ratios, composition, the laws of perspective, relations of color and tint, constructive building, plastics, plein air.

Rezume

Maqolada qisqa muddatli ranglavhalar ishlash bo'yicha asosiy amaliy tavsiyalar berilgan, mazkur yo`nalishda qo'llaniladigan individual metodlarning xususiyatlari tushuntirilgan.

Tayanch tushunchalar: ranglavha, komponovka, nisbatlarni aniqlash, kompozitsiya, perspektiva qonunlari, rang va tus munosabatlari, konstruktiv qurilish, plastika, plener.

Резюме.

В статье даны основные практические рекомендации по выполнению краткосрочных этюдов, описаны особенности индивидуальных методов, применяемых в этом направлении.

Основные понятия: этюд, компоновка, выявление отношений, композиция, законы перспективы, отношения света и оттенка, конструктивное строение, пластика, пленэр.

Oliy ta`lim talabalariga tasviriy san`at o'qitilishini yangicha tashkil etish, uning mazmuni va metodikasini takomillashtirish shu kunning dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.



Website:

<https://wos.academiascience.org>



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023

Tasviriy san'atda qisqa muddatli ranglavhalar ishlash bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Demak oliv ta'lim talabalariga tasviriy san'at orqali badiiy ta'lim berish dolzarb vazifalardan biridir. Tasviriy san'atdan malakali pedagog kadrlar tayyorlashda talabalarga jismlarni naturaga qarab to'g'ri tasvirlash mashqlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak rassom-pedagogning tasviriy san'at sohasidagi mahoratini shakllantirish, auditoriyada va mustaqil tarzda naturani hayotiy tasvirlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Naturadan rasm chizish mashg'ulotlarida talaba birinchi galda turli shakllarning o'ziga xos tomonlarini to'g'ri ko'rishni o'rganadi. Ma'lumki, insonlar jismlar va ularning tasvirini turlicha tasavvur etadilar. Bu esa birinchi navbatda har bir insonning ko'z tuzilishiga va ayniqsa tasviriy san'at borasida ko'rish qobiliyatiga bog'liq. Rasm chizishni o'rgatishda asosiy vazifa, bu rassomda jism shaklini masofadan ko'rish va tasvirlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Jism shaklini masofadan (kenglikda) ko'rish va tasvirlash – jismni «to'la hajmda», uch o'lchamli shaklda (balandligi, eni va qalinligini) ko'rish demakdir. Xaqqoniy rasm chizish ko'z bilan o'lhash, masofa va jism o'lchamlarini ko'zda chamalash, va naturani to'g'ri anglash orqali erishiladi. Bunday hollarda jism o'lchami va masofani aniqlash uchun ko'z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chamalash qobiliyatini shakllantirish uchun ish jarayonida doimiy ravishda ko'z bilan nisbatni aniqlab turish yaxshi natija beradi. Ko'rish orqali eslab qolish rassomning eng qimmatli va e'tiborli hislati bo'lib, u orqali jism shakli, nisbati va tuzilishi haqidagi aniq va umumiylashtirish uchun saqlaydi. Bu esa shaklni xotiradan, tasavvur va anglash asosida chizish imkonini beradi va rassomning kelgusida mustaqil kompozitsiyalar va eskizlar yaratish borasidagi ishlarini birmuncha engillashtiradi.

Natura qo'yilmasidan rasm chizish bo'yicha olib borilgan doimiy mashqlar natijasida ko'rib eslab qolish qobiliyati rivojlanadi. Bunday mashqlar, ayniqsa, birinchi kursga qabul qilingan talabalar orasida ko'proq o'tkazilishi yaxshi natija beradi. Bu esa talabalarda jismlarning shakli, konstruktiv qurilishi, nisbatlari va plastikasi to'g'risidagi tasavvurlarni xotirada yanada uzoq saqlashga yordam beradi. Talabalar dastlabki ta'lim bosqichida odatda chizayotgan narsani yuzaki huddi o'ziday ko'chirishga harakat qiladilar. Ular diqqat bilan oldinma ketin narsalarga tikilib qarashadi, so'ngra har bir mayda bo'laklarni va ularning rangini alohida-alohida bo'yashadi. Natijada tasvir maydalangan va bir butun ko'rinishda bo'lmaydi. Bunday kamchiliklar qo'yilmaning predmetlar orasidagi katta rang munosabatlarini etyud (ranglavha)da ko'rsata olmaslikdan kelib chiqadi. Inson bosh qismini to'g'ri tasvirlashda ham masalan yuzning mayda bo'laklaridan boshlab bo'lmaydi, faqat harakatdagi nisbatlarda umumiylashtirish uchun yaxlitlikdan boshlashi rangtasvida esa ham



Website:

<https://wos.academiascience.org>

925



turli natura ob`ektlari (natyurmort, manzara) yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog'lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlashni o'rganib olishi kerak. Natura ob`ekti yaxlit ko'rish va katta asosiy ranglar dog'ini aniqlay bilish – muhim kasbiy mahorat, u esa dastlabki rangtasvir ta'limida shakllangan bo'lishi kerak. Faqat shundan so'ng uzoq muddatli (vaqt bo'yicha) ishlarga manzara ob`ektlari yoki natyurmortdagi buyumlarning hajmlri shakllarini puxta ishlashga o'tishi mumkin.

Ochiq havo (plener) da kichik xajmdagi etyud (ranglavha)larni turli ranglar vositasida ishslashda avvalo, asosiy rang munosabatlarini aniq topa olish muhimdir. Buning uchun naturaning old ko'rinishidagi qarama-qarshi (tusli va rangli) dog'larni uzoqdagiga nisbatan taqqoslash kerak. Kichik o'lchamdagи etyudlarda mayda bo'laklarga e'tibor berilmaydi, asosan katta rang munosabatlarida yoziladi. Manzara etyudlarini bajarishda uncha murakkab bo'limgan syujetlar tanlanadi (masalan uy bilan hovlining bir bo'lagi).

Keyinchalik vazifani murakkablashtirib, ochiq kenglikdagi manzarani tasvirlashga o'tiladi. Bunday etyudlarda havo perspektivasidagi, masalan manzaradagi ranglarning och-to'qlik va to'yinganligini turli ko'rinishlaridagi hodisalarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunga esa manzaraning barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan yaxlit idrok qilish orqali erishiladi.

Masalan, old ko'rinishdagi daryo qirg'og'i, ikkinchi hamda uzoqdagi ko'rinish bilan, shuningdek bir vaqtda osmon va uning suvdagi aksi bilan ham taqqoslanadi (etyudni ishslash vaqt 15-30-60 daqiqagacha bo'lishi mumkin).

«...Etyudni shunday tasvirlash kerakki, birdan er bilan suvni osmonga nisbatan tus munosabatlarini anglab mohiyatini ilg'ab olish zarur» - degan edi taniqli ijodkor Malik aka Nabiev o'z shogirdlariga. Uning o'zi doimo etyudlarda asosiy rang munosabatlarini to'g'ri topishni mohir ustasi bo'lgan[1.-75].

Qisqa muddatli etyudlarni bajarish maqsadi turlicha bo'lishi mumkin: ba'zan etyud uzoq davomli ish oldidan bajariladi va unda naturadagi ranglar munosabatlari tahlil qilib o'rganiladi hamda uning koloritiga hos birinchi taassurotlar belgilanadi, boshqa holatda esa – shakllarni qo'shimcha va puxtarot o'rganish maqsadida uning mayda bo'laklari (inson qo'lining etyudi, manzaraning ayrim bo'laklari) aniqlanadi. Rangtasvirning qonuniyatlarini puxta o'rganish uchun, dala amaliyotida etyudlar bajariladi: manzaraning umumiylar yoritiganlik holati, kolorit yaxlitligi va h.k.. Manzaraning etyudini tasvirlashda har doim yorug'lik tez-tez o'zgarib turadi. Hattoki, quyosh bulutlar ortida bo'lsa ham, u manzaraga bevosita ta'sir qiladiki, seansni boshlanishida va so'ngida manzaradagi yorug'lik holati doim turlicha bo'ladi.



Natyurmortning umumiylisini va rang holatini xonaning ichki sharoitida aniq kuzatish uchun tuzilgan sodda natura qo'yilmalari bilan bir nechta qisqa muddatli etyudlar bajarilib yorug'lik manbai har xil masofada joylashtirilgan bo'lsa, ya'ni deraza yaqinida, xona o'rtasida va derazadan uzoqlashgan holatda (xonaning ichkarisida).

Dastlabki natyurmort qo'yilmasi derazaga yaqinroq joylashtiriladi natijada u boshqalarga nisbatan kuchliroq yoritilgan bo'ladi. Keyingi qo'yilmalarni yoritilishi esa biroz sustroq bo'ladi. Bu o'quv qo'yilmalari orqali etyudlardagi soya-yorug', rang hamda yoritilishni pasaytirilishi yoki kuchaytirilishiga bog'liq holda etyudning umumiylisini va rang holatini qanday ko'rinishini namoyish etiladi.

Koloritga ya'ni rang qatorining birligi va uyg'unligiga hos qisqa fursatli etyudlar bajarish muhimdir. Bunday maqsadli qo'yilmalarda qandaydir ma'lum bir rang ustun turishi kerak. Masalan natyurmortni sun'iy issiq yorug'lik bilan yoritish mumkin. Bunday etyudlarda mayda bo'laklarni batafsil ishlab chiqishga hojat yo'q. Muhimi, rang gammasini uning birligi va uyg'unligini tushunib tasvirlashdan iboratdir. Qisqa muddatli etyudlardagi qo'yilmalarni issiq va sovuq ranglarda almashtirib tasvirlash maqsadga muvofiqdir.

Yosh rassomning uzluksiz mashqlari natijasida ranglardagi nozik o'zgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanlikni rivojlanishiga rang-baranglikni sezishga, hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashiga zamin yaratadi. Tajribali rassomlarning etyudlarini kuzatganda ularning nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganiga havas bilan qaraymiz. Naturaning rangdor koloritli holatini mohirona tasvirlash mahoratiga tinmay uzluksiz amaliy ishlash natijasidagina erishiladi.

Shunday qilib naturaning asosiy ob`ektlari orasidagi umumiylisini va katta ranglar munosabatini ma'lum tusi va ranglar ko'lamida saqlanganligi rangtasvirning asosidir. Shular asosida ob`ektlarning keyingi ranglarda ishslashning o'ta nozik jarayoni amalga oshiriladi, bu tabiatni diqqat bilan kuzatish, uni jonli his etish natijasidir.

Buning ustiga rangli tasvir natyurmortning alohida buyumlari yoki manzara ob`ektlarini nusxasini yuzaki ko'chirish orqali yaratilmaydi, u buyumlarning rang munosabatlari va ularning fazoviy kenglik bilan birga o'zaro bog'liq holda, yaxlit obraz asosida rassomning idrok etishi natijasida quriladi.

Har qanday natura qo'yilmasini yaxlit obraz sifatida qabul qilish lozim. Natyurmortning turli narsalardan tuzilganligini masalan qumg'on, olma, piyola; manzarada esa – alohida osmon, o'rmon va yiroqdagi ko'kimtir tog'larni ma'lum vaqtga yoddan chiqarish kerak. Naturaga bunday qarash orqali buyumlarning shaxsiy rangini ko'rish mumkin xolos lekin tasvirlash lozim bo'lgan ranglarni emas. Naturaning barcha narsalari yoki ob`ektlari – bu rangli kartinaning bir qismi xolos ranglarning jarangdorligi, uning yaxlitligini tasvirlash mobaynida



namoyon bo'ladi, bu esa xuddi turli musiqa asboblarida ijro etilayotgan yaxlit simfonik asar singari jaranglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abdirasilov S., Talipov N. Rangtasvir. Darslik- T., Innovatsiya- Ziyo, 2019, 75.
- 2.Abdirasilov S., Talipov N. Rangtasvir. Darslik- T., Innovatsiya- Ziyo, 2019, 82.
- 3.Abdirasilov S., Talipov N. Rangtasvir. Darslik- T., Innovatsiya- Ziyo, 2019, 85.
- 4.Азимова Б.З. Натюрморт тузиш ва тасвирлаш методикаси – Т.: Ўқитувчи 1984.- 22.
- 5.Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. Збірник наукових праць Л'ОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>
6. Jabbarov Rustam Ravshanovich PATTERNS IN APPLIED ART OF THE UZBEK FOLK // European Journal of Arts. 2023. №1. С. 11 - 14. URL: <https://ppublishing.org/archive/publication/538-patterns-in-applied-art-of-the-uzbek-folk>
- 7.Jabbarov, R. (2021). Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ijodi ta'sirida yuzaga kelgan o'ziga xos yo'nalish. Жамият ва инновациялар, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.54274/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
- 8.Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>
- 9.Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>
- 10.Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць Л'ОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
- 11.Nozimovich, T. N. (2022). TALABALAR BILAN TEZ FURSATDA RANGLAVHALAR ISHLASHNING KREATIV TEXNOLOGIYALARI. Conferencea, 31-35.
- 12.Бабаев, А. Р., & Истомина, И. В. (2022). Научный руководитель: Каспер НВ. ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ НАУКИ В УСЛОВИЯХ, 126.



13. Makhkamov DA, Chorshanbiev UR, & Babaev AR. (2022). Laboratory Research of Multiple Flow Movement in Pipelines. Global Scientific Review, 1, 42–46. Retrieved from <http://scientificreview.com/index.php/gsr/article/view/830>.
14. Murad Absamatovich Rasulov. "O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATINI TASHKIL TOPISHI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI" Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), vol. 2, no. 5, 2022, pp. 319-329.
15. Khamidovich, T. N., Nozimovich, T. N., Ibrohimovna, Y. N., Ravshanovich, J. R., & Kholmuratovich, M. K. (2019). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES THROUGH TEACHING" LANDSCAPE PAINTING. Journal of Critical Reviews, 7(6), 2020.
16. Talipov , N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>
17. Xamidovich, T. N., & Tulkunovna, S. D. (2022, May). BOLAJAK TASVIRIY SANAT MUALLIMLARINI KASBGA YONALTIRISHDA MANZARA KOMPOZITSIYASINING OZIGA XOSLIGI. In E Conference Zone (pp. 116-120).
18. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. Общество и инновации, 2(4/S), 607–613. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>
19. Talipov, K. N. (2021). Is graphics important in painting?. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 984-990.
20. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Збірник наукових праць ЛОГОΣ.
21. Абдирасилов, С. Ф., Толипов, Н. Х., & Толипов, Н. Н. (2017). Эффективность исторического подхода в художественном обучении. Молодой ученый, (20), 417-421.
22. Talipov, N. X., & Aliev, N. S. (2021). The importance of perspective in teaching art to future fine arts teachers. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 97-103.
23. Абдирасилов, С. Ф., & Исахожаева, Н. А. (2017). Изобразительные умения и навыки в процессе выполнения набросков будущих дизайнеров. Молодой ученый, (7), 411-414.



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023

- 24.Абдирасилов, С., Бойметов, Б., & Толипов, Н. (2006). Тасвирий санъат. Тошкент: Чўлпон.
- 25.Абдирасилов, С. Ф., Назирбекова, Ш. Б., & Махкамова, С. Б. (2016). Художественно-культурные традиции узбекского народного искусства на уроках изобразительного искусства. Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии, (11 (68)), 32-42.
- 26.Нуртаев, У. Н., & Махкамова, С. Б. (2016). Вопросы подготовки студентов к художественно-творческой деятельности. Молодой ученый, (7), 687-691.
- 27.Махмудова, Г. И., Каратаев, М. С., Сатаев, М. И., Нуртаев, У. Н., Бейсенбаева, Ш. К., & Куралибаева, А. (2016). Односторонний платированный плюшевый трикотаж. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 160-163.
28. Khalilov, R. (2021). The creative technologies for teaching students to work in short-term colors. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 606-610.
- 29.Халилов, Р. Ш., & Баркашева, Б. (2016). Роль полевой практики в формировании будущих учителей изобразительного искусства. Молодой ученый, (6), 827-829.
- 30.Kholmuratovich, M. K., Mardanaqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05).



Website:

<https://wos.academiascience.org>

930